

DARS ISHLANMA NAMUNASI

Sana:

Sinf: 3-sinf

Mavzu: Gapda eganing qo'llanilishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarda gap va uning qismlarini farqlash, imlosiga rioya qilish; so'zlarfa so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish. (Lingvistik kompetensiya (OTMT.3.LK.TII.10); OTMT.3.LK.TII.6));

Tarbiyaviy maqsad: munozara jarayonida mavzudan chetga chiqmagan holda o'z fikrini erkin navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish (Nutqiy kompetensiya:og'zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.2));

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri va ravon so'zlay olish; hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash ko'nikmalarini takomillashtirish (Nutqiy kompetensiya: og'zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.1; OTMT.1.NK.ON.3); tinglab tushunish (OTMT.1.NK.A.TT.4)).

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars tipi: noan'anaviy

Dars metodi: ko'rgazmali metod, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: doska, bo'r, darslik, ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, texnik vositalar.

Darsning texnologik xaritasi

T/R	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	7 daqiqa
3	Yangi mavzuga zamin yaratish	8 daqiqa
4	Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
6	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	5 daqiqa
7	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami:		45 daqiqa

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

O‘quvchilar bilan salomlashilib, davomat olinadi. Navbatchi axboroti tinglanadi. Sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Sana va mavzu nomi doskaga yoziladi.

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash.

Oldingi darsda o‘tilganlarni takrorlab olish uchun “Akvarium” metodi qo‘llaniladi. Sinfдан 5 nafar o‘quvchi tanlab olinadi. Ular sinfning o‘rtasidan joy oladi – ular “baliq”, qolganlar kuzatuvchi bo‘ladi. O‘tirgan o‘quvchilar o‘tilgan mavzuga doir savollar beradi, doskada turgan o‘quvchilar esa savollarga birma-bir javob beradi. Savolga javob berolmagan o‘quvchi joyiga o‘tiradi. Yoki savollar

yoʻzilgan “baliqlar” solingan “akvarium” tayyorlanadi. Oʻquvchilar navbat bilan “baliq” ovlaydi va savollarga javob beradi.

III. Yangi mavzuga zamin yaratish.

12-mashq sharti oʻqiladi va tahlil qilinadi. Berilgan savollarga oʻquvchilar daftarlariga javob yozishadi va Kim? soʻrogʻiga javob boʻluvchi soʻzlarning tagiga chizishadi.

IV. Yangi mavzu bayoni.

Oʻqituvchi oʻquvchilarni qoida bilan tanishtiradi va tushuntirib beradi.



Qoidani yod oling!

Kesimga bogʻlanib, ish-harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilishini bildiradigan bosh boʻlak **ega** deyiladi. Ega **Kim? Nima? Qayer?** soʻroqlariga javob boʻladi.

13-mashqni bajarish uchun oʻquvchilarga individual topshiriqlar beriladi. Har bir oʻquvchi oʻzi alohida topshiriqni bajaradi.

<i>T/r</i>	<i>Kasblar</i>	<i>Gap</i>	<i>Gapdagi bosh boʻlaklar</i>
1.			

2.			
3.			
4.			

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

14-mashqda o'quvchilar savollarning o'rniga foydalanish uchun berilgan so'zlardan keraklisini qo'yib daftariga ko'chiradi. 15-mashqda berilgan 5 ta gapni daftariga yozib oladi va egalarini topib, tagiga chizadi.



Ega bilan
bog'liq mavzu
yanayam
mustahkamlanishi
uchun "Galereyani
aylanish" metodidan
foydalaniladi. Bunda
sinf ikki kichik
guruhga ajratiladi.
Kichik guruhlar
alohida 1 tadan qog'oz

beriladi. Har bir guruh ega haqidagi o'z fikrlarini o'zining rangli markerida yozadi, javob yozilgan varaqlarni 2-guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob to'liq bo'lmasa, o'z javobi bilan to'ldirishi kerak. Javoblar yozib bo'lingach, qog'ozlar doskaga osib qo'yiladi va guruhlar bilan birgalikda muhokama qilinadi. Har bir o'quvchi qog'ozlardagi javoblarni ko'rishi, o'rganishi va baholashi mumkin.

VI. O'quvchilarni baholash va darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi hamda rag'batlantiriladi.

VII. Uyga vazifa berish. 16-mashq uyga vazifa qilib beriladi va sharti o'qib, o'quvchilarga tushuntiriladi.